| | |
|---|---|
| | kafedrasi katta o‘qituvchisi.<br>Sh.Muxtarova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi. |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>**B.Mengliyev** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori,<br>**R. Rasulov** - Chirchiq davlat pedagogika universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori, professor |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.F.Muxamedov
__________________
2023-yil “___” ______

# ONA TILINI O‘QITISH METODIKASI O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta’lim
**Ta’lim sohasi:** 110000 – Ta’lim
**Ta’lim yo‘nalishi:** 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti

**Chirchiq-2023**

| Fan/modul kodi OTO‘M309 | O‘quv yili 2025-2026 | Semestr VI | ECTS - Kreditlar 5 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | Ta’lim tili O‘zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 | |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Ona tilini o‘qitish metodikasi | 60 | 90 | 150 |

2

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarni Ona tilini o’qitish metodikasining nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, ona tili didaktikasi va metodikasi haqida ma’lumot berish hamda ona tilini o‘quv predmeti sifatida qanday o‘qitish kerakligiga oid kasbiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, o’zbek tilini o’qitish metodikasining nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Fanni o‘qitishning vazifasi** – talabalarni ona tilini o‘qitish nazariyasi va amaliyotiga oid bilim berish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishga o‘rgatish va pirovardida ularni amaliy tilshunoslik, mantiq, pedagogika, psixologiya, fiziologiya sohalari bilan munosabatlarini bilish, fanlararo integratsiyaga asoslangan til ta’limini tashkil qilish va o‘qitishga oid ona tili ta’limi jarayoniga tayyorlashdan iborat.

**II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari )**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash usullari**

Ona tilidan o‘quvchilar bilimini nazorat qilish yo‘llari.

**2-mavzu. O‘zbek tilini o’qitish metodikasi mustaqil fan sifatida**

Ona tili mazmuni haqida.

**3-mavzu. Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘qib, eshitib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakasini shakllantirish**

Nutq o‘stirishning tafakkur bilan aloqadorligi. Maktabda o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar. Yozma nutqni rivojlantirish. Nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish usullari.

**4-mavzu. Ona tili fani bo‘yicha uzluksiz ta’limning Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari mazmuni**



Ona tilidan davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi va ularning takomillashtirilishi. Ona tili ta’limida tub yangilanishlar.

**5-mavzu. Uzluksiz ta’limning ona tili fanidan darsliklarning tuzilishi va mazmuni. Ona tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan huquqiy va me’yoriy hujjatlar**

Darsliklarning tuzilishi va mazmuni haqida ma’lumot. Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari.

**6-mavzu. Ona tilini o‘qitilishining tarixiy taraqqiyoti. O’zbek tilini o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi**

Ta’limni ona tilida olib boorish va ona tilining o‘quv predmeti sifatida ta’lim dargohlarida o‘qitilishi masalasi. Ona tili ta’limida fanlararo integratsiyaning ahamiyati.

**7-mavzu. Ona tili o‘qitish metodikasining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari**

Ona tili o‘qitishning metodlari haqida umumiy tushuncha. (Tushuntirish-namoyish etish, muammoli bayon qilish, qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik, tadqiqot metodlari)

**8-mavzu. Ona tilini o‘qitish metodlari tasnifi. Ona tili ta’limida til ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi**

Ona tili ta’limida bilim berishga mo‘ljallangan an’anaviy va zamonaviy metodlar.

**9-mavzu. Ona tili darslarida qo‘llaniladigan axborot – kommunikatsiya texnologiyalari.**

Ona tili darslarida AKT bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

**10-mavzu. Ona tilidan uzviylashtirilgan DTS va o‘quv dasturi mazmuni. O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari**

O‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish usullari.

**11-mavzu. O‘quv va metodik qo‘llanmalar, lug‘atlar, qomuslar, axborot-ma’lumot manbalari va ulardan foydalanish usullari**

Darslik, o‘quv metodik qo‘llanmalar, lug‘atlar bian ishlash va dars davomida ta’lim oluvchi bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar tizimi. Lug`at ustida ishlashning lingvistik asoslari va vazifalari. Lug`at ustida ishlashning asosiy yo’nalishlari. O`quvchilar lug`atini boyituvchi manbalar. So’zlarning ma`nosi bilan tushuntirish usullari.

**12-mavzu. Ona tilini o‘qitishda qo‘llanadigan zamonaviy metodlar. O‘quvchilarning til ko‘nikmalarini shakllantirish usullari**

Ona tili ta’limida zamonaviy yondashuvlar.

**13-mavzu. Ona tili ta'limida rivojlangan davlatlar tajribasi va ularning dars jarayoniga tatbig'i**

O`quvchilarning PISA nazorati asosida o`zbek tili leksikasi taraqqiyotiga doir matnni tahlil qilish va ma`lumotlarga o'z munosabatini yozma shakllantirish kompetentligini aniqlash.

**14-mavzu. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf qilish**

Nutqiy xatolar. Xato turlari. Xatolarning oldini olish va uni to'g'rilash. Nutqiy xatolarni to'g'rilash.

**15-mavzu. Ona tili darslarida fanlararo integratsiyaning ahamiyati**

Yangi darsliklar mazmuni. Ona tili fanini boshqa fanlar bilan matnlar orqali integratsiyalash xususiyatlari.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

**1-mavzu.** Mustaqil so'zlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil so'zlarni tasniflashda innovatsion yondashuvlar.

**2-mavzu.** Yordamchi so'zlarni o'qitish metodlari. Oraliqdagi so'zlarni o'qitish usullari.

**3-mavzu.** So'z turkumlarini o'qitishda matn bilan ishlash.

**4-mavzu.** Sintaksis bo'limini o'qitish va uning boshqa bo'limlar bilan aloqadorligi. So'z birikmasining bog'lanish usullari ustida ishlash usullari.

**5-mavzu.** Gapning asosiy belgilari, ifoda maqsadi va tuzilishiga ko'ra turlarini o'qitishga innovatsion yondashuv.

**6-mavzu.** Til bo'limlarini o'qitishda kommunikativ yondashuvni qo'llash usullari.

**7-mavzu.** Fonetikaga oid til ko'nikmlalarini shakllantirish usullari.

**8-mavzu.** Leksik birliklarni nutqda faollashtirish usullari.

**9-mavzu.** So'zlarni turkumlashda kontekst bilan ishlash usullari.

**10-mavzu.** So'z birikmasi, gap va gap bo'laklari ustida ishlash.

**11-mavzu.** Tinish belgilarining qo'llanishi ustida ishlash.

**12-mavzu.** Nutqning uslubiy shakllarini farqlash usullari.

**13-mavzu.** Ona tiidan o'quvchilar bilimini baholash mezonlari.

**14-mavzu.** O'quvchilar nutqiga qo`yiladigan talablar.

**15-mavzu.** Ona tili darslarida o'quvchilarni lingvistik lug'atlar bilan ishlashga o'rgatish mashqlarini tashkil etish.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi.



Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ishlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1.O'quvchilarning og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqini o'stirish mazmuniga oid mashq va topshiriqlar tizimini yaratish
2.Fikrni yozma shaklda bayon etishga tayyoralash mazmuni
3.Gapning asosiy belgilari, ifoda maqsadi va tuzilishiga ko'ra turlarini o'qitishga innovatsion yondashuv yuzasidan videodarslar tayyorlash.
4.O'rta umumta'lim maktablari va akademik litseylarda sodda gapni o'qitish metodikasiga oid dars ishlanmalari tayyorlash
5.O'rta umumta'lim maktablari va akademik litseylarda qo'shma gapni o'qitish metodikasi metodikasiga oid dars ishlanmalari tayyorlash
6.Fikrni yozma shaklda bayon etishga tayyoralash mazmuni
7.Ona tiidan o'quvchilar bilimini baholash mezonlari
8.Mustaqil so'zlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari
9.Ona tili ta'limida rivojlangan davlatlar tajribasi va ularning dars jarayoniga tatbig'i.Ona tili darsliklarining tarkibi va mazmuni, darsliklar ustida ishlash.
10.Yozma ishlarni tashkil etish mazmuni va tamoyillari
11.Yozma ishlar – o'quvchilar tafakkurini shakllantiruvchi vosita
12.Yozma ish turlari bo'yicha taqdimot tayyorlash
13.Diktant matniga qo`yiladigan talablar va ularni mavzularga guruhlash.
14.5- sinf o`quvchilarini to`liq qayta hikoyalash asosida bayon yozishga o`rgatish
15.5- sinf o`quvchilarini insho yozishga o`rgatish
16.5- sinf o`quvchilarini tanlab qayta hikoyalash asosida bayon yozishga o`rgatish
17.5- sinf o`quvchilarini qisqartirib qayta hikoyalash asosida bayon yozishga o`rgatish
18.5- sinf o`quvchilarini ijodiy qayta hikoyalash asosida bayon yozishga o`rgatish
19.6- sinf o`quvchilarini to`liq qayta hikoyalash asosida bayon yozishga o`rgatish
20.6- sinf o`quvchilarini tanlab qayta hikoyalash asosida bayon yozishga o`rgatish
21.6- sinf o`quvchilarini qisqartirib qayta hikoyalash asosida bayon yozishga o`rgatish
22.6- sinf o`quvchilarini ijodiy qayta hikoyalash asosida bayon yozishga o`rgatish
23.10-sinfda insho yozish darslari va ularga qo`yiladigan talablar
24.11-sinfda insho yozish darslari va ularga qo`yiladigan talablar
25.Imlo xatolari ustida ishlash bo'yicha keyslar bankini yaratish
26.Yozma ishlarni tilshunoslik bo'limlari bilan bog'lab o'rgatish metodikasi
27.Xatolar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish
28.O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish
29.Yozma ishlar – o'quvchilar tafakkurini shakllantiruvchi vosita
30.Yozma ishlarni tashkil etish mazmuni va tamoyillari

| | |
|---|---|
| | |
| 3 | **V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>– ona tili ta'limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari; ona tilini o'qitish tarixi, rivojlanishi, fanning obyekti va subyekti; "O'zbek tilini o'qitish metodikasi"ning tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari, boshqa fanlar bilan aloqasi; ona tilini o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar; ona tilini o'qitish metodlari; ona tilidan dars turlari va unda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar; til bo'limlarini o'qitishdagi o'ziga xos yondashuvlar haqidagi **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)**<br>– ona tili darslarini loyihalashtirish va tashkil etish, ona tili ta'limi mazmuni, bu fanlarni o'qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlarini tahlil qila olish, ona tili ta'limida an'anaviy va noan'anaviy dars shakllarini qo'llash, o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullaridan **foydalana olishi; (ko'nikma).**<br>– o'quv ishlarini loyihalashtirish; darsdan tashqari mashg'ulotlarni aniq va maqsadli tashkil eta olish; o'z shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish **malakalariga ega bo'lishi lozim.** |
| 4 | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>-ma'ruzalar;<br>-interfaol keys-stadilar;<br>-seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>-guruhlarda ishlash<br>-taqdimotlarni qilish;<br>-individual loyihalar;<br>-jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6 | **VIII. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.<br>2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o'qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.<br>3. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti, |



| | |
|---|---|
| | 2005.<br>4. Xolmanova Z., Yusupova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma). – T.: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, 2019.<br><br>**IX. Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.<br>2. Мавлонова К.М. Она тили дарсларида бадиий матннинг тил хусусиятларини интеграциялаш асосида ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: Mashhur-press, 2016. – 252 б.<br>3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan 4-nashri. – T.: Ma'naviyat, 2015. – 224 b.<br>4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. – T.: Tasvir, 2017. – 208 b.<br>5. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi ucnun darslik / To'ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashr. – T.: Ma'naviyat, 2017. – 160 b.<br>6. Qodirov M. va.b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.<br>7. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2010. – 128 b.<br>8. Mengliyev B.v.b. Ona tili. – T.: O'qituvchi, 2020. – 96 b.<br>9. Mahmudov N.v.b. Ona tili. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 112 b.<br><br>**Axborot manbalari:**<br>http://uza.uz/oz/documents/alisher-navoiy-nomidagi-toshkent-davlat-o'zbek-tili-va-adabiyoti-13-05-2016<br>.http://navoiy-uni.uz/uz-l/content/ozbek-tili-va-adabiyoti-boyicha-malakali-mutaxassislar-tayyorlashning-yangicha-tamoyillari<br>http://ziyonet.uz/ru<br>https://tilvaadabiyot.uz/<br>https://xt.uzedu.uz/<br>www.cspi.uz |
| 7 | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil "29" 08 dagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan.** |
| 8 | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>X.Gulyamova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "O'zbek tilshunosligi" |